

## THE NEED AND BASIC CONCEPTS OF REGIONAL CLUSTERING

**Shamsiyeva Mohigul Olimjon qizi**

Bukhara engineering-technology

Foundation doctoral student of the Institute

### **ABSTRACT**

When translated, the term " cluster "(from English " cluster") gives the meanings of " feather", " head", " knot", " pile", " group", " accumulation", " concentration".

Klaster terminini amerikalik iqtisodchi Maykl Porter o'zining "Raqobat ustunlik nazariyasi" asarida quyidagicha ta'riflagan - geografik jihatdan o'zaro bog'langan kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar, tegishli sohalardagi firmalar, shuningdek, raqobatdosh bo'lgan ayrim sohalarda tegishli tashkilotlar (universitetlar, standartlashtirish agentliklari, savdo uyushmalari va boshqalar)ning geografik jihatdan to'plangan guruhidir. Shuning bilan bir vaqtda ushbu guruh faqatgina qo'shma ishlarga rahbarlik qilishini ta'kidlab o'tgan.<sup>1</sup>

Klaster - bu ma'lum bir yo'nalishdagi ishlab chiqarish yoki xizmatlarning o'zini o'zi ta'minlaydigan mahalliylashtirilgan hududining almashtiriladigan elementidir. Iqtisodiy klaster - ma'lum bir hududda to'plangan o'zaro bog'liq tashkilotlar (kompaniyalar, korporatsiyalar, universitetlar, banklar va boshqalar): barcha ishtirokchilarning umumiyligi raqobatdosh ustunliklarini oshirish maqsadida mahsulotlar, butlovchi qismlar va ixtisoslashtirilgan xizmatlarni etkazib beruvchilar, infratuzilma, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, shuningdek, alohida kompaniyalarning o'zaro integratsion birikishidir. Klaster o'z ishtirokchilarining o'zaro raqobati, uning ishtirokchilarining hamkorligi, mintaqaning aniq vakolatlarini shakllantirish, korxona va tashkilotlarning ma'lum bir hududda kontsentratsiyasini

---

<sup>1</sup> Журавлева Г.П. и другие. Векторы смены экономического курса. Монография. Выпуск 10. - Москва, Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2015. - 314 с.

shakllantirish xususiyatlariga ega. Klasterlar umumiy qiymat zanjiri doirasidagi tashkilotlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakllaridan biridir.

Zamonaviy klasterlar dunyo mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy siyosatida muhim hodisa bo'lib kelayotganligi hech kimga sir emas. Klasterlar o'zining barcha elementlarini uzlusiz takomillashtirib borishi nuqtai-nazaridan ularning o'zaro aloqasi alohida elementni ham, bir butun klasterni ham raqobatdoshligini oshishiga hissa qo'shuvchi nazariy-uslubiy asos sifatida klasterlashtirish tamoyillari maydonga chiqadi.

Klasterlarni shakllantirish tamoyillarini o'rgangan mualliflar YE.M.Tereshin, V.M.Volodinlarning fikricha, tuzilishi, hajmi va faoliyat turiga qarab, klasterlarni shakllantirishning uchta asosiy tamoyillari keng tarqalgan ekan:<sup>2</sup>

- potensial ishtirokchilar manfaatlarining umumiyligi;
- konsentratsiya (muntazam aloqalar uchun qulay joylarni aniqlanishi);
- ishtirokchilar bog'liqligini ta'minlovchi o'zaro aloqalar.

Rossiyalik olimlardan A.S.Xuxrin tomonidan klasterlarning 1) geografik-hududiy joylashuviga ko'ra konsentratsiyalanganligi; 2) o'z-o'zidan shakllanishi; 3) tarmoqli tashkil etilishi; 4) tizimliligi; 5) tarmoqlararo xususiyatlari; 6) unikalligi; 7) fan va ilmiy tadqiqotlarga bog'liqligi; 8) innovatsionligi belgilari ajratiladi.<sup>3</sup> Klaster tuzilmalari quyidagi umumiy o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanishi A.S. Voronov tomonidan taklif etiladi:<sup>4</sup>

- geografik yaqinlik, ya'ni bilimlar tarqalishiga va zaruriy ishlab chiqarish omillariga yetish imkonini beruvchi yaqinlik;
- bunday uyushmalar ishtirokchilari o'rtasida o'zaro axborot va hamkorlik tajribasini to'plash va almashish;
- klaster ishtirokchilarining o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash;

<sup>2</sup> Терешин Е.М. Володин В.М. Принцип кластерных объединений в российской экономике // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. - 2011. - № 3. - С. 57-60

<sup>3</sup> Хухрин А.С. Агропромышленные кластеры России: глобальный подход /Чирков Е.П. Бундина О.И., Толмачева Н.П./// Восточно Европейский научный журнал. № 6, апрель, 2017.

<sup>4</sup> Воронов А. С. К вопросу о типах региональных инновационных кластеров / А. С. Воронов, Л. С. Леонтьева // Статистика и экономика. – 2016. – № 3. – С. 5

– innovatsiyalarni joriy etish masalalarida eng egiluvchan va moslashuvchan bo‘lgan kichik va o‘rta biznes vakillarining ko‘p sonli faoliyat yuritishi.

O.A. Frolovaning sohaga oid maqolasida klasterlashning asosiy uchta mezoni ajratib ko‘rsatiladi.<sup>5</sup> Birinchidan, klaster, ayniqsa, barqaror rivojlangan holatida yaxlit tizim sifatida shakllanishi kerak ekan. Tizim qancha yaxlit bo‘lsa, uni qo‘llashdagi sinergetik samaralar ta’siri ham shunchalik yuqori bo‘lar ekan. Tizimning yaxlitligi uning yopiqligini bildirmaydi va shuning uchun klaster tizimi qanchalik ochiq bo‘lsa, u ko‘proq rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘lar ekan. Ikkinchidan, klaster deb, shunday tuzilmalarni atash kerakki, qaysikim uning asosini innovatsion texnologiyalar, ko‘p boqichli texnologik o‘zaro aloqalar tashkil qilishi, u mehnatning taqsimlanishiga asoslangan an’anaviy o‘zaro hamkorlikdan iborat bo‘lmasligi lozim. Uchinchidan, klaster deb faqat o‘z-o‘zini boshqaruvchi va tashkiliy jixatdan integrallashgan shaklda bo‘lgan, kichik rezonans ta’sirlar bilan boshqariladigan tuzilma hisoblanishi kerak ekan. Klasterlardagi subyektlarning xatti-harakatlarini klasterlarni boshqarishning ma’muriy apparatini emas, balki ularning iqtisodiy manfaatlari belgilar ekan. Shu bilan birga, klasterda o‘z-o‘zini tashkil qilish ustunlik qilsa-da, inqiroz holatlarini oldini olish uchun klaster ma’muriy resurslarini ham ishga solishi mumkin ekan.<sup>6</sup>

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar S. H. Eshonqulov va X. Urdushevlar klasterlarni shakllantirish tamoyillari sifatida quyidagilarni taklif etishadi:<sup>7</sup>

- birinchidan, tizimlilik, munosabatlarning mavjudligi va o‘zaro aloqalarni kuchliligi (zaif, o‘rta, kuchli va juda kuchli);
- ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilishi, foydalanish va yaqin texnologik aloqalarning bo‘lishi;

---

<sup>5</sup> Фролова О.А. Агропромышленные кластеры: российская модель/ Вестник НГИЭИ/  
<https://cyberleninka.ru/article/n/agropromyshlennye-klastery-rossiyskaya-model>

<sup>6</sup> Фролова О.А. Агропромышленные кластеры: российская модель/ Вестник НГИЭИ/  
<https://cyberleninka.ru/article/n/agropromyshlennye-klastery-rossiyskaya-model>

<sup>7</sup> С. Х. Эшонкулов, Х. Урдушев. Мева-сабзавот кластерда узум ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотишни оптималлаштириш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил, 5-бет

- uchinchidan, klasterlar o‘z-o‘zini boshqaradigan va asosan o‘z-o‘zini tashkil qiladigan iqtisodiy shakldir. Shu bilan birga, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini-o‘zi tashkil etish muayyan iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Ushbu manfaatlarning mazmuni, asosan, innovatsion texnologiyalar va klasterdagi texnologik aloqalar bilan belgilanadi.

UNIDO mutaxassislari tomonidan o‘rganilgan o‘n bir mamlakatda mavjud klaster tizimlari tajribasi ushbu tashkilotga klasterlashni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mintaqaviy siyosatning umumlashtirilgan konsepsiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Ushbu kontseptsiyaga ko‘ra, klasterlarni shakllantirishning asosiy talablari quyidagilardir:

- biznesni tarmoqli tashkil etish g‘oyasini targ‘ib qilish;
- mavjud korxonalarni qayta qurish;
- xususiy va davlat sektorlari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash.<sup>8</sup>

O.M. Trofimova klasterlarni shakllantirishning quyidagi tamoyillarini belgilaydi:<sup>9</sup>

- klasterga kiruvchi korxonalarining vertikal integratsiyalashuvi;
- raqobatdosh munosabatlar o‘rnini bosadigan va klasterning sinergetik darajasini oshiradigan yaqin hamkorlik aloqalarining mavjudligi;
- klasterning yagona ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasi;
- milliy miqyosda va iqtisodiy rayon darajasida aniq ixtisoslashuv, aniq sanoat ixtisoslashuvining mavjudligi;
- zarur majmui va hajmi resurslarga ega bolgan cheklangan hududdagi hududiy kontsentratsiya;
- mintaqadagi yetakchi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik, klasterda ilmiy muassasalarning mavjudligi tufayli yuqori innovatsion faollik.

<sup>8</sup> Дворкин Антон Сергеевич. Кластеризация как перспективное направление экономического развития региона: (На примере Самарской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2006. Стр 8

<sup>9</sup> Загородников К.А., Просвирина Н.В. Сущность и классификация кластеров в современной инновационной экономике // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2018. Том 8. № 12A. С. 114

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumiy tarzda aytib o‘tish joizki, klaster - aniq bir sohada texnologik zanjirga birlashgan, bir geografik hududda joylashgan, bir biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik subyektlari va rivojlanish institutlari guruhi hisoblanib, bir maqsad uchun raqobatbardoshligini ta’minlash yo‘lida o‘zaro birlashtiruvchi jarayondir. Tarixga nazar tashlasak, jahon hamjamiyatida klaster nazariyasini o‘rganish tez sur’atlarda o‘sib borgan va uni amaliyotda qo’llash esa hudud va sanoat tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishining asosiy yunalishiga aylangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Журавлева Г.П. и другие. Векторы смены экономического курса. Монография. Выпуск 10. - Москва, Тамбов: Издательский дом ТГУ им. Г.Р. Державина, 2015. - 314 с.
2. Терешин Е.М. Володин В.М. Принцип кластерных объединений в российской экономике // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. - 2011. - № 3. - С. 57-60
3. Хухрин А.С. Агропромышленные кластеры России: глобальный подход /Чирков Е.П. Бундина О.И., Толмачева Н.П./ Восточно Европейский научный журнал. № 6, апрель, 2017.
4. Воронов А. С. К вопросу о типах региональных инновационных кластеров / А. С. Воронов, Л. С. Леонтьева // Статистика и экономика. – 2016. – № 3. – С. 5
5. Фролова О.А. Агропромышленные кластеры: российская модель/ Вестник НГИЭИ/ <https://cyberleninka.ru/article/n/agropromyshlennye-klastery-rossiyskaya-model>
6. С. Ҳ. Эшонқулов, Ҳ. Урдушев. Мева-сабзавот кластерда узум ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотишни оптималлаштириш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил, 5-бет

7. Дворкин Антон Сергеевич. Кластеризация как перспективное направление экономического развития региона: (На примере Самарской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2006. Стр 8
8. Загородников К.А., Просвирина Н.В. Сущность и классификация кластеров в современной инновационной экономике // Экономика: вчера, сегодня, завтра. 2018. Том 8. № 12А. С. 114
9. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. Conferencea, 43-47.
10. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 12 (407). — С. 63-65. — URL: <https://moluch.ru/archive/407/89611/> (дата обращения: 20.01.2023).
11. Azimov B. F., Rakhimova D. D. THE ROLE OF RESEARCH AND INNOVATIONS IN THE MODERNIZATION OF THE REGIONAL ECONOMY //Conferencea. – 2022. – С. 43-47.
12. Азимов Б. Ф., Бобоев А. Ч., Абдуллаев Ж. Ж. Определение экспортных драйверов региона путем анализа внешнеторгового оборота бухарской области //ученый xxі века. – 2022. – №. 7 (88). – С. 20-24.
13. Азимов Б. Ф., Рахимова Д. Д. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ //Редакционная коллегия. – 2022. – С. 61.
14. Азимов Б. Ф., Рахимова Д. Д., Солиев Д. Н. НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА К РАЗВИТИЮ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И СОКРАЩЕНИЮ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ //Universum: экономика и юриспруденция. – 2022. – №. 5 (92). – С. 14-17.

15. Азимов Бобир Фаттохевич Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга муҳтожми? // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-milliy-urf-odatlari-investitsion-va-innovatsion-transformatsiyalashga-mu-tozhmi> (дата обращения: 20.01.2023).
16. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.